

EPIZODIK PARANOID SHIZOFRENIYADA GENDER OMILINING PSIXIATRIYAVIY REABILITATSIYANI OPTIMALLASHTIRISHINING BA'ZI JIHATLARI

B. X. Kalandarov, A. X. Imomov, V. V. Kosolapov, Sh. A. Imomov
RSNPMCPZ Samarqand viloyat bo'limi, Samarqand, O'zbekiston

Tayanch so'zlar: epizodik paranoid shizofreniya, gender omili, klinikasi, kasallikning kechishi, rehabilitatsiya, optimallashtirish.

Ключевые слова: эпизодическая параноидная шизофрения, гендерный фактор, клиника, течение, реабилитация, оптимизация.

Key words: episodic paranoid schizophrenia, gender factor, clinical picture, course of illness, rehabilitation, optimization.

Dolzarbligi. Epizodik paranoid shizofreniya (EPSh)da psixiatriyaviy rehabilitatsiyani optimallashtirishda gender xususiyatlarini o'rganish zamonaviy psixiatriyaning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. O'tkazilgan tadqiqot natijasida EPSh bilan kasallangan bemorlarning psixiatriyaviy rehabilitatsiyasini optimallashtirish darajasiga gender omilining ta'sir darajasi aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, klinik manzaraning og'irlik darajasi, kasallikning progredient yo'nalishi va gender omili EPSh bo'lgan bemorlar uchun psixiatriyaviy rehabilitatsiya dasturlarining samaradorligida muhim ahamiyatga ega. EPSh bilan kasallangan ayol va erkak bemorlarda psixiatriyaviy rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorlik darajasida farqlar aniqlandi.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ОПТИМИЗАЦИИ ПСИХИАТРИЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ С УЧЁТОМ ГЕНДЕРНОГО ФАКТОРА ПРИ ЭПИЗОДИЧЕСКОЙ ПАРАНОИДНОЙ ШИЗОФРЕНИИ

Б. Х. Каландаров, А. Х. Имамов, В. В. Косолапов, Ш. А. Имамов

Самаркандское областное отделение РГНПЦПЗ, Самарканд, Узбекистан

Актуальность. Изучение гендерных особенностей оптимизации психиатрической реабилитации при эпизодической параноидной шизофрении (ЭПШ) остается актуальной проблемой современной психиатрии. В результате исследования была выявлена степень влияния гендерного фактора на степень оптимизированной психиатрической реабилитации больных ЭПШ. Исследование выявило значимость степени тяжести клиники, прогредиентности течения и психиатрического гендерного фактора в эффективности оптимизированных психиатрических реабилитационных программ при ЭПШ. Выявлены различия в степени эффективности оптимизированных психиатрических реабилитационных мероприятий, в зависимости от пола у больных при ЭПШ.

SOME ASPECTS OF OPTIMIZING PSYCHIATRIC REHABILITATION CONSIDERING THE GENDER FACTOR IN EPISODIC PARANOID SCHIZOPHRENIA

B. Kh. Kalandarov, A. Kh. Imamov, V. V. Kosolapov, Sh. A. Imamov

Samarkand Regional Branch of the RSNPMCPZ, Samarkand, Republic of Uzbekistan.

Relevance. The study of gender-specific features in optimizing psychiatric rehabilitation for episodic paranoid schizophrenia (EPSh) remains a relevant issue in modern psychiatry. The research revealed the degree of influence of the gender factor on the effectiveness of optimized psychiatric rehabilitation in patients with EPSh. The study demonstrated the significance of clinical severity, the progressive course of the illness, and the psychiatric gender factor in the effectiveness of optimized psychiatric rehabilitation programs for EPSh. Differences in the effectiveness of optimized psychiatric rehabilitation measures were identified depending on the patient's gender in cases of EPSh.

Epizodik paranoid shizofreniya (EPSh) psixiatrik rehabilitatsiyasini optimallashtirishning gender xususiyatlarini o'rganish ushbu muammoning dolzarblig darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda hozirgacha bunday tadqiqotlar o'tkazilmagan [1,5,9,11,13].

Ko'pgina tadqiqot ishlarida rehabilitatsiya dasturlarining samaradorligi EPShning klinik ko'rinishida retrospektiv tahlil va gender farqlarisiz yetarli darajada baholanmagan. Barqaror, yuqori sifatli uzoq muddatli remissiyaga ega bo'lgan holatlarda psixiatriyaviy rehabilitatsiyaning natijasi ijobiy bo'ladi, ammo EPShning atipik klinik shakllari bilan kuzatilgan bemorlarda psixiatrik rehabilitatsiyasi optimallashtirishga erishish qiyin. Lekin kuplining xolatlarida rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorligi EPSh bilan ro'yxatga olingan barcha bemorlar orasida emas, asosan tanlangan material bo'yicha o'rganilgan [2,7,10,12,15].

Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, klinik ko'rinish, kechish turlari va gender omili bilan bog'liq holda ijtimoiy rehabilitatsiyani optimallashtirish masalalari EPShda ishonchli tadqiqot usuli hisoblanadi. Shu munosabat bilan rehabilitatsiya tadbirlarini optimallashtirishda gender omilining EPSh klinik ko'rinishi va kechish turi bilan bog'liqlik darajasini aniqlash uchun yangi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish talab qilinadi. Rehabilitatsiya tadbirlarini optimallashtirish haqida

to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun EPSH bilan og'rikan bemorlarda gender omilining rolini har tomonlama o'rganish zarur [3,4,6,8,14].

Tadqiqotning maqsadi. EPSHning klinik shakllari va kechishi turlari uchun reabilitatsiya dasturlarini optimallashtirishda gender omillarining rolini o'rganishdir.

Tadqiqot usullari. Belgilangan vazifani hal qilish uchun Samarqand viloyat ruhiy salomatlik markazida statsionar davolanayotgan va 5-10 yil davomida dispanser hisobida turgan EPSH bilan kasallangan bemorlar klinik va psixopatologik usulda tekshirildi. 100 bemor (50 erkak, 50 ayol) o'rganildi. Ularning 75,2% shizofreniya jarayoni 5 yil va undan ortiq, 24,8% 10 yildan ortiq davom etgan. Tekshiruv vaqtida yoshi bo'yicha bemorlar quyidagicha taqsimlangan: 25 yoshgacha – 18 bemor; 30 yoshgacha - 43, 40 yoshgacha - 28, 41 yoshgacha va undan katta 11 bemor. EPSHning klinik ko'rinishini sindromologik baholash yordamida amalga oshirildi. Ambulator va statsionar yordamning uzluksizligi ushbu bemorlarda klinikadagi farqlar va EPSH kechishi turi haqida kerakli ma'lumotlarni olish imkonini berdi. Klinik va psixopatologik tadqiqot davomida, shizofreniya jarayonining asosiy tendentsiyalarini hisobga olgan holda qisman, biz optimallashtirilgan psixiatriyaviy reabilitatsiya tushunchasiga aniqlik kiritildi: qisman, barqaror bo'lmagan va uzoq muddatli, yuqori sifatli.

Natija va muhokamalar. Ushbu tadqiqotda epizodik paranoid shizofreniya jarayonining rivojlanish kontseptsiyasi asosiy klinik va patogenetik tendentsiya sifatida ko'rib chiqildi. U turli darajadagi hissiyotlar buzilishlari, tartibsizligi fikrlash va iroda pasayishning ketma-ket shakllanishida namoyon bo'ladi. Shizofreniyada bemor klinik kechishi ijobiy va salbiy psixopatologik belgilar diapazoni ruhiy o'zgarishlarning chuqurligini ifodalaydi va EPSH bemorlarning jinsi bilan bog'liqlik darajasini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, psixopatologik buzilishlar dinamikasida shaxs o'zgarishlari pasayishning uchta darajasini ajratish mumkin: yengil, o'rtacha va og'ir. Yengil daraja asteniyaning mavjudligi bilan tavsiflanadi va qarindoshlar, do'stlar tomonidan ushbu o'zgarishlar dangasalik, dav qaraladi. Bunday psixopatologik belgilar EPSH bilan og'rikan bemorlarda ruxiyatining yuzaki zararlanishi oilada, jamiyatda ijtimoiy moslashuvning sezilarli darajada buzimasligi va majburiy reabilitatsiya choralarini talab qilmasligi muhimdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davolanishdan keyin ba'zi bemorlarda vasvasa, gallyutsinatsiya belgilari, shilqim g'oyalar, sezilarli hissiy-irodaviy pasayishlar mavjud bo'lib, ular EPSHning beqaror remissiyasini ko'rsatadi. Kerakli terapiya muolajalarni amalga oshirish EPSH bilan og'rikan bemorlarning ko'pchiligiga shifoxonadan tashqarida qolish, uzoq vaqt davomida oila sharoitida yashash, o'rtacha ijtimoiy moslashuvga ega bo'lish va oddiy ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritish imkonini beradi. Ushbu klinik va ijtimoiy mezonlar uy sharoitida qo'llab-quvvatlovchi terapiyani va optimallashtirilgan reabilitatsiya choralarini qo'llashga imkon yaratadi.

Uzoq muddatli, remissiyasiz ruhiy buzilishlarning paydo bo'lishi EPSHning yomon sifatli kechishini ko'rsatadi. Bunday sharoitda bemorlar asosan kasalxonaga yotqiziladi va energiya potentsialining pasayishi (abuliya), shaxsiyatning parchalanishi, o'ziga ham, atrofidagi dunyoga ham befarqlikning rivojlanishi (apatiya) chuqur salbiy buzilishlarga olib keladi. Bunday hollarda optimallashtirilgan reabilitatsiya choralarini qo'llash kerakli samarani bermaydi. Bu klinik ko'rinishning og'irligi, gender omili va reabilitatsiya choralarining samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Og'ir darajadagi ruhiy buzilishlar rivojlanish darajasini tahlil qilish EPSHdagi kasallik jarayonining uzluksizligini anglatadi. Shunday qilib, kasallikning dinamikasi shuni ko'rsatdiki, kasallikning uzoq bosqichlarida 24,8% da yengil shaxsiy o'zgarishlar, 50,2% - o'rtacha, 25% - EPSHda og'ir ko'rinishlari aniklangan.

Turli o'tkirlikdagi klinik rivojlanish ehtimolini qiyosiy o'rganish erkaklarda sezilarli farqlarni aniqladi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, gender omil EPSH bilan og'rikan erkak va ayol bemorlarda har xil og'irlikdagi klinik kurinishlarni rivojlanish ehtimoliga ta'sir qiladi deb taxmin qilish mumkin. Shu munosabat bilan, individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda bemorlarning jinsini, shizofreniya jarayonining boshlanishi, namoyon bo'lishi va rivojlanish tezligini hisobga olish kerak. Gender omilining kasalliklarga ta'sirini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, EPSH bilan og'rikan erkaklarning 50 foizida shaxsiyat o'zgarishlari 5 yil ichida, ayollarda esa 6-10 yil davomida shakllanadi. Shunday qilib, bizning dastlabki ma'lumotlarimiz shuni ko'rsatadiki, gender omil EPSH bilan og'rikan bemorlarda shaxsiyatning pasayishi darajasiga sezilarli ta'sir qiladi, bu sifat ayollarda ancha yuqori. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, optimallashtirilgan tera-

pevtik rehabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishda EPSH klinikasinig og'irligi va rivojlanish darajasi hisobga olingan. Shu munosabat bilan, EPSH bemorlarda ijobiy ijtimoiy maqomning shakllanishi rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorligi bilan bevosita bog'liq deb hisoblash mumkin. Shuning uchun ishonchli prognostika mezonlari psixopatologik sindromning shakllanish turlari, kechishi, residiv chastotasi va EPSH bilan og'rigan bemorlarda shaxs o'zgarishlarning mavjudligi kiradi. Ushbu muhim prognostik mezonlarga asoslanib, shizofreniya jarayonida rehabilitatsiya dasturlarining samaradorligini baholash mumkin. EPSH jarayonida uzoq muddatli remissiyaning bir martalik o'tkir xurujlaridan keyin mehnat rehabilitatsiyasining samaradorligiga kirmasligi qayd etilgan. Uzoq muddatli va psixoz mobaynida retsediv xurujlar kuzatilsa, ijtimoiy rehabilitatsiya ya'ni bemorning oila va jamiyatdagi mavqeini tiklash eng optimal variant hisoblanadi. Shu munosabat bilan bemorlarni uyda sharoitida parvarishlash qo'llab quvvatlash terapiyasiga qat'iy rioya qilish katta ahamiyat kasb etadi. Turli darajadagi salbiy alomatlar mavjudligi EPSH bilan og'rigan bemorlarda kasallik jarayonining barqaror nuqsonli holatga o'tishini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy rehabilitatsiya ushbu bemorlarda kamroq samara beradi. Residivlarning chastotasini, kechish turini, gender omilini va salbiy alomatlar darajasini hisobga olgan holda optimallashtirilgan psixiatrik rehabilitatsiya dasturini EPSHda tavakalashtirilgan tarzda qo'llanilish tavsiya etiladi.

EPSHda klinik ko'rinishi, kechish turi va salbiy shaxsiy o'zgarishlarning qiyosiy tahlili erkak va ayol bemorlarda belgilarda sezilarli farqlar borligini ko'rsatdi. Kasallik jarayonining barqarorlashishi yoki uning faol bo'lmagan klinik holatga o'tishi erkaklarda ko'proq bo'lgan, ayollarda esa surunkali klinik ko'rinish, tez-tez qaytalanishlar va shaxsiyatning salbiy o'zgarishlari kuzatilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, erkaklarda ijtimoiy moslashuv jarayoni tezroq sodir bo'ladi, ayollarda esa oilada ijtimoiy moslashuvning yuqori darajasi qayd etiladi. Shunday qilib, klinik va psixopatologik tadqiqot natijalari klinik ko'rinishning og'irligi va EPSH kechishini rivojlanishida gender omilni hisobga olgan holda optimallashtirilgan rehabilitatsiya dasturlari samaradorligi darajalarini aniqlashga imkon berdi.

Xulosa. Klinik va psixopatologik tadqiqot gender omilining klinik ko'rinishdagi o'rni, kechish turiga ta'siri bo'yicha yangi ilmiy ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi va mutaxassislarning EPSH uchun optimallashtirilgan rehabilitatsiya dasturini qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Yuqori samarali terapiya ijtimoiy yo'naltirilgan rehabilitatsiyaning muhim usuli ekanligi va EPSH bilan og'rigan bemorlarda yuqori prognostik ma'lumotlarga ega ekanligi aniqlandi. Shuning uchun EPSH bilan og'rigan bemorlarni samarali davolash, yuqori sifatli, uzoq muddatli remissiya, uyda uzluksiz qullab-quvvatlovchi terapiyasi, shaxslararo nizolarning yuqligi, oilada bemorga hurmat bo'lishi va bemorni uydagi mehnat jarayoniga jalb qilish rehabilitatsiyani optimallashtirishadi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdumo'minov O.A. Surunkali virusli gepatit bilan qo'shilgan paranoid shizofreniya bilan og'rigan bemorlarning ijtimoiy moslashuvi aspektlari // Samarqand yosh psixiatrlar va narkologlar maktabi. Biomeditsina va amaliyot jurnali.-2022. - No. Maxsus soni. 1.1-P. 9.
2. Agranovskiy M.L. Paroksizmal shizofreniya bilan og'rigan bemorlarni ijtimoiy va mehnat rehabilitatsiyasi // Nevrologiya.-2018.-No. 1.-p. 33-35.
3. Rasulov A.R. Statsionar davolanayotgan shizofreniya bilan og'rigan bemorlarni psixiatrik rehabilitatsiya qilish samaradorligi // Zhurn. S.S.Korsakov nomidagi nevrologiya va psixiatriya.-2021.-jild. L21.- № 2.-P. 13-17.
4. Pashkovskiy V.E. va boshqalar. Turli kasalxonaga yotqizish ko'rsatkichlari bilan paranoid shizofreniya bilan og'rigan bemorlarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili // Ijtimoiy va klinik psixiatriya.-2017. -T. 27, No 3.-B.19-25
5. Mirzaev A.A. Paroksizmal shizofreniya bilan og'rigan bemorlarning masofaviy ijtimoiy-mehnat prognozi//, Cand. Sci. (tibbiyot) diss. Toshkent.-2011-24-yillar.
6. Petrova N.N. Shizofreniya bilan og'rigan bemorlarning remissiyasi va rehabilitatsiyasining klinik va funktsional xususiyatlari // Nevrologiya byulleten.-2020.-LII, No 2-P. 33-39.
7. Gordeeva E.A. va boshqalar. Tipik va atipik antipsikotiklar bilan kombinatsiyalangan terapiya yordamida paranoid shizofreniyani davolashning farmakologik jihatlar. // Nevrologiya axborotnoma.-2018. -jild L, No 2.- B. 107-109.
8. Volkov A. N. Shizofreniyani davolash va rehabilitatsiya qilish amaliyotida psixososyal yondashuvlar: zamonaviy tendentsiyalar // Tabiiy fanlarning dolzarb muammolari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - M., 2015. - B. 168-174.

9. Fokeeva E. S. Shizofreniya bilan ogʻrigan bemorlarni psixososyal reabilitatsiya qilish // Oltoy davlat universiteti yosh olimlarining ishlari, Barnaul, 2016. - No 13. - P. 232-234.
10. Privalova. E.A. Shizofreniya bilan ogʻrigan bemorlarni reabilitatsiya qilish muammosi// Psixiatriya: ruhiy salomatlikni saqlashning zamonaviy tendentsiyalari: Ivanovning ilmiy maqolalari toʻplami. davlat tibbiyot akademiyasi, 2017. B. 49-52.
11. Primysheva. E.N. Psixotraumatik omillar taʼsiridan keyin paydo boʻlgan paranoid shizofreniya bilan ogʻrigan ayollarni psixoprofilaktikasi va reabilitatsiyasining dolzarbligi toʻgʻrisida // Tavrichesky Psixiatriya jurnali. - 2017. - jild. 21, № 4 (81). 57-64-betlar.
12. Skokou M. Shizofreniya bilan ogʻrigan bemorlar uchun kognitiv reabilitatsiya: moderativ omillar, strategiyalar va natijalarning hikoyaviy sharhi // Eksperimental tibbiyot va biologiyadagi yutuqlar. - 2023. - jild. 1423. B. 193-199. —DOI: 10.1007/978-3-031-31978-5_17.
13. Oyelade O. O. Shizofreniya bilan ogʻrigan shaxslarni psixo-ijtimoiy reabilitatsiya qilish: koʻrib chiqish protokoli // Tizimli sharhlar. - 2022. - jild. 11, Iss. 1. - Art. 32. - DOI: 10.1186/s13643-022-01901-y.
14. Pena J. Shizofreniyada kognitiv reabilitatsiya orqali funktsional takomillashtirish mexanizmlari // Psixiatriya tadqiqotlari jurnali. - 2018. - jild. 101. - B. 21–27. - DOI: 10.1016/j.jpsychires.2018.03.002.
15. Spaulding W. D. Shizofreniya spektrida bilishni davolash: psixiatrik reabilitatsiya konteksti // Shizofreniya xabar-nomasi. - 2016. - jild. 42, qoʻshimcha. 1. - P. S53–S61. - DOI: 10.1093/schbul/sbv163.